

AYOLLAR ISHSIZLIGINI XALQARO HUQUQDA TAHLIL QILISH: IQTISODIY VA IJTIMOIIY OQIBATLAR

Najimova Jamola Davron qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14061679>

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro huquq va ayollar huquqlari prizmasidan ayollar ishsizligi muammosini tadqiq etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda ayollar ishsizlik darajasi erkaklarnikidan yuqori bo'lib qolmoqda. Maqolada xalqaro va milliy huquqiy me'yorlar doirasida ayollarning mehnat huquqlari himoyasi, ishsizlikning asosiy sabablari va yechimlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro konvensiyalarning milliy qonunchilikka to'liq implementatsiya qilinmasligi, gender stereotiplar, ta'lim va malaka olish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda ish joyidagi kamsitish kabi omillar ayollar ishsizligiga sabab bo'lmoqda. Muammo yechimi sifatida huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish, maxsus ta'lim dasturlari yaratish, moslashuvchan ish rejimlarini joriy etish va gender tenglikni ta'minlovchi siyosatlar ishlab chiqish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Ayollar ishsizligi, xalqaro mehnat huquqi, gender tengsizlik, XMT standartlari, ayollar huquqlari, mehnat bozori, kamsitish, iqtisodiy mustaqillik.

ANALYZING WOMEN'S UNEMPLOYMENT IN INTERNATIONAL LAW: ECONOMIC AND SOCIAL IMPLICATIONS

Abstract. This article explores the problem of women's unemployment from the perspective of international law and women's rights. According to the International Labor Organization, in 2023 the unemployment rate of women will remain higher than that of men. The article analyzes the protection of women's labor rights, the main causes and solutions of unemployment within the framework of international and national legal norms. According to the results of the study, factors such as incomplete implementation of international conventions into national legislation, gender stereotypes, limited opportunities for education and training, and discrimination in the workplace cause women's unemployment. As a solution to the problem, it is proposed to strengthen legal mechanisms, create special education programs, introduce flexible work regimes and develop policies that ensure gender equality.

Key words: Women's unemployment, international labor law, gender inequality, ILO standards, women's rights, labor market, discrimination, economic independence.

АНАЛИЗ ЖЕНСКОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема женской безработицы с точки зрения международного права и прав женщин. По данным Международной организации труда, в 2023 году уровень безработицы среди женщин останется выше, чем среди мужчин. В статье анализируется защита трудовых прав женщин, основные причины и пути решения проблемы безработицы в рамках международных и национальных правовых норм. По результатам исследования, причиной женской безработицы являются такие факторы, как неполная имплементация международных конвенций в национальное законодательство, гендерные стереотипы, ограниченные возможности получения образования и профессиональной подготовки, а также дискриминация на рабочем месте. В качестве решения проблемы предлагается усилить правовые механизмы, создать специальные образовательные программы, ввести гибкие режимы работы и разработать политику, обеспечивающую гендерное равенство.

Ключевые слова: женская безработица, международное трудовое право, гендерное неравенство, стандарты МОТ, права женщин, рынок труда, дискриминация, экономическая независимость.

I. KIRISH

Ayollar ishsizligi butun dunyo bo'ylab dolzarb muammolardan biri bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikning yaqqol ko'rinishidir. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda ayollar ishsizlik darajasi erkaklarnikidan 0.8 foizga yuqori bo'lib qolmoqda.

Ushbu raqamlar ortida gender tengsizligi, kamsitish va ayollar huquqlarining buzilishi kabi muammolar yotadi. Ayollar ishsizligi muammosini xalqaro huquq va ayollar huquqlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish, bu maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Misol uchun, Keniyada ayollar o'rtasidagi ishsizlik darajasi erkaklarnikidan ikki baravar ko'p, bu imkoniyatlardan foydalanishda gender tafovutini kamaytirishga qaratilgan kampaniyalar hali o'z samarasini bermaganligini ko'rsatadi¹.

Maqolada xalqaro va milliy huquqiy me'yorlar doirasida ayollarning mehnat huquqlari himoyasi qanday amalga oshirilayotgani, ishsizlikning asosiy sabablari va bu muammoning yechimlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro huquq normalarining milliy siyosatga tatbiq etilishi ham o'rganiladi.

¹ Nairobi ANPAK. (July 5, 2023). *Unemployment among women two times higher than men*. Business Daily. <https://advance.lexis.com>

Xalqaro darajada ayollarni mehnat bozorida himoya qiluvchi ko'plab shartnomalar va konvensiyalar qabul qilingan, ammo amalda ularning bajarilishi ko'p mamlakatlarda yetarli darajada emas. Bunga ijtimoiy-madaniy to'siqlar, gender stereotiplari va qonunchilikdagi bo'shliqlar sabab bo'lmoqda.

Maqola ayollar ishsizligiga qarshi kurashda xalqaro huquqiy va amaliy choralarni ko'rsatishni, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va mehnat bozoridagi rolini oshirishga qaratilgan strategiyalarni taklif etishni maqsad qilgan.

II. METODOLOGIYA

Ushbu maqola aralash usullar yondashuviga asoslangan bo'lib, miqdoriy va sifatli tahlillarni o'z ichiga oladi. Maqola davomida xalqaro konvensiyalar (BMT CEDAW, XMT rezolyutsiyalari), milliy qonunchilik hujjatlari, BMT, XMT va Jahon banki hisobotlari tahlil qilindi. Ayollarning ishsizligi masalasidagi xalqaro va milliy yondashuvlar o'rganildi. 2015-2023 yillar oralig'ida XMT va Jahon banki tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar, ayollar ishsizlik darajasi, ish bilan bandlik va ish haqi farqlari tahlil qilindi. Bu raqamlar ayollarning mehnat bozoridagi holatini ko'rsatdi. 2023-2024 yillar uchun davriy ishchi kuchi tadqiqoti (PLFS) 15 yoshdan oshganlar uchun ishsizlik darajasi 3,3 foizdan 3,2 foizga tushganini ko'rsatdi.

20 nafar huquqshunoslar, ayollar huquqlari faollari va siyosatchilar bilan yarim tuzilmali intervyular o'tkazildi. Intervyular onlayn platformalar orqali amalga oshirilib, ishsizlikning huquqiy va ijtimoiy sabablari chuqur tahlil qilindi. AQSh, Shvetsiya, Yaponiya, Misr va Braziliya kabi mamlakatlar misolida ayollarning ishsizlik holati va unga qarshi qabul qilingan choralar o'rganildi.

Har bir mamlakat uchun hujjatlar va asosiy ma'lumot beruvchilar bilan intervyular orqali case study tahlili amalga oshirildi. Xalqaro mehnat konvensiyalari va milliy qonunchilikda gender tenglik va ayollarning iqtisodiy huquqlariga oid qoidalar o'rganildi. Shuningdek, iqtisodiy huquqlar bilan bog'liq sud qarorlari tahlil qilindi.

III. NATIJALAR

Aksariyat g'arbiy mamlakatlarda 70-80-yillarda ayollarning ishsizlik darajasi erkaklarnikiga qaraganda yuqori bo'lgan bo'lsa ham, ayollar ishsizligi kamdan-kam hollarda tadqiqot ob'ektiga aylangan². Bu qisman ko'plab ijtimoiy olimlar ishsizlik ayollar uchun unchalik muammo emas degan taxmindan boshlashgan. Biroq, ayollarning ishsizlik shakllari o'rganish ob'ektiga aylantirilganda, tushuntirishlar asosan iqtisodiy va institutsional xarakterga ega bo'lib, sub'yektiv xarakterdagi jarayonlar o'rganilmaydi.

² Karen Davies, Joke Esseveld. (1985). *Women's Studies International Forum*. Elsevier publish

Xalqaro mehnat huquqi doirasida ayollarning ishsizlikka qarshi himoyasi yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, milliy qonunchilikda bu me'yorlarning to'liq amalga oshirilmayotgani aniqlandi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va BMTning ayollar huquqlariga doir konvensiyalari qabul qilingan ko'plab mamlakatlarda amaliy ijro etish jarayonida qiyinchiliklar mavjud. Shu sababli xalqaro huquqiy me'yorlar milliy amaliyotga samarali tatbiq etilmayapti.

XMT va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2015-2023 yillarda ayollar ishsizlik darajasi erkaklarnikidan sezilarli darajada yuqori bo'lib qolmoqda. Shuningdek, ish haqi farqlari ham saqlanib qolgani aniqlangan. Ish bilan bandlik darajasi bo'yicha gender tengsizligi global miqyosda haligacha kuchli bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda ayollar uchun sifatli va uzoq muddatli ish o'rinlari yetishmaydi. Shuningdek, 2023-2024 yillar uchun davriy ishchi kuchi tadqiqoti (PLFS) 15 yoshdan oshganlar uchun ishsizlik darajasi 3,3 foizdan 3,2 foizga tushganini ko'rsatdi³.

Ayollar huquqlari bo'yicha faollar, huquqshunoslar va siyosatchilar bilan o'tkazilgan intervyular natijasida, ayollarning ishsizligiga olib keluvchi omillar sifatida gender stereotiplari, oilaviy majburiyatlar va mehnat bozoridagi diskriminatsiya kabi ijtimoiy to'siqlar ko'rsatilgan. Intervyular ishtirokchilari davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish zarurligini ta'kidladilar.

AQSh, Shvetsiya, Yaponiya, Misr va Braziliya misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, har bir mamlakatda ayollar ishsizligi o'ziga xos sabablarga ega bo'lsa-da, umumiy tendensiyalar mavjud. Iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, gender tengsizligi va ayollarga nisbatan mehnat bozorida kamsitish saqlanib qolmoqda. Shvetsiya kabi ba'zi mamlakatlarda muvaffaqiyatli gender siyosati tufayli ishsizlik pastroq bo'lsa, boshqa mamlakatlarda, masalan, Misrda ayollarning iqtisodiy faoliyatiga qattiq to'siqlar mavjud.

Xalqaro mehnat konvensiyalarining milliy qonunchilikka tatbiq etilishida sezilarli bo'shliqlar borligi aniqlandi. Xususan, gender tenglikka oid qoidalar ko'plab mamlakatlarda qonunchilikka kiritilgan bo'lsa-da, ularning ijrosi, nazorat mexanizmlari va sud amaliyoti yetarli darajada emas. Bu, ayollarning mehnat huquqlarini amalda himoya qilishda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Maqola natijalariga ko'ra, xalqaro huquq normalarini milliy darajada samarali tatbiq etish va ayollar ishsizligini kamaytirish uchun davlat siyosatida huquqiy va iqtisodiy choralarning kompleks yondashuvi talab etiladi.

³ Unemployment rate among women rises, overall rate remains steady. (September 23, 2024 Monday). Business Line. <https://advance.lexis.com>

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va gender tenglikka erishish uchun davlat va xalqaro tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur ekanligi tasdiqlandi.

IV. MUHOKAMA

Maqola natijalari ayollar ishsizligi global miqyosda murakkab va ko'p qirrali muammo ekanligini ko'rsatmoqda. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, CEDAW konvensiyasi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan standartlar ayollar huquqlarini himoya qilish uchun zarur mexanizmlarni taklif qiladi (CEDAW, 1979; ILO, 2019). Shunga qaramay, ko'plab mamlakatlarda bu huquqiy me'yorlarning to'liq tatbiq etilmasligi ayollar ishsizligi darajasining yuqoriligiga sabab bo'lmoqda.

Masalan, "Gender and the Law: Theory, Doctrine, Commentary" kitobida ta'kidlanishicha, huquqiy himoya faqat qonunchilikning mavjudligi bilan cheklanmasligi kerak, balki amalda ham faol ishlatilishi lozim. Bu tamoyil milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi, ammo davlatlar tomonidan tatbiq etilishida yetarli nazorat va mexanizmlar yetishmasligi ko'zga tashlanmoqda.[1]

Gender stereotiplari va ijtimoiy normalar ayollar ish bilan bandligiga jiddiy to'sqinlik qiluvchi omillardan biridir. Maqola natijalarida, ayniqsa, Misr va Yaponiya kabi mamlakatlarda bu holat yaqqol namoyon bo'lgan. "Undoing Gender" asarida gender ijtimoiy konstruktsiya ekanligi ta'kidlanganidek, bu stereotiplar nafaqat ayollarning kasbiy imkoniyatlarini cheklaydi, balki ularning mehnat bozoriga kirib borishini ham qiyinlashtiradi.[2] Shuningdek, gender stereotiplari oilaviy majburiyatlar va ish-hayot muvozanatini saqlash masalasida ayollarga nisbatan qo'shimcha yuk yuklaydi, bu esa ularning mehnat faoliyatida cheklangan rol o'ynashiga olib keladi. "The Future of Feminism" kitobida aytilganidek, gender tengligi va ijtimoiy tizimlar ayollarning iqtisodiy mustaqilligi jamiyatdagi gender tenglikka bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.[3]

Ta'lim va malaka olish imkoniyatlarining cheklanganligi ham ayollarning ishsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. "Women and Human Development: The Capabilities Approach" kitobida imkoniyatlarni kengaytirish va ta'lim olish imkoniyatlari ayollarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili ekani ta'kidlangan. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'limga kirish imkoniyatlarining cheklanishi ayollarning malakasiz lavozimlarda ishlashiga olib kelmoqda, bu esa ularni yuqori maoshli lavozimlardan uzoqlashtiradi.[4] Misol uchun, XMT hisobotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar orasida malaka talab qiladigan ish joylariga kirish imkoniyatlari ancha past.

Ish joyidagi kamsitish va gender asosidagi zo'ravonlik ham muhim muammolar sifatida ko'tarilmoqda.

Bu holatlarni bartaraf etish uchun kamsitishga qarshi qattiqroq huquqiy choralar ko‘rish va gender tengligini ta‘minlovchi siyosatlarni mustahkamlash zarur. Ayollarni ish joyida kamsitish, ular uchun noqulay ish sharoitlari yaratib, ko‘plab ayollarning mehnat bozoridan chiqib ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, gender zo‘ravonligi global miqyosda ayollarning iqtisodiy faolligini susaytirayotgan kuchli omillardan biridir.

Huquqiy himoya sustligi va qonunlarning samarasiz ijrosi ko‘plab mamlakatlarda muammoning hal qilinmasligiga olib kelmoqda. “Human Rights and Gender Violence: Translating International Law into Local Justice” kitobida xalqaro huquqning milliy amaliyotlarga tatbiq etilishidagi qiyinchiliklar ta‘kidlangan bo‘lib, milliy huquq tizimlarining xalqaro standartlarga moslashuvi sekin va murakkab jarayon ekanini aytadi. Buning natijasida ayollar huquqlarini himoya qilishda milliy qonunlarda mavjud bo‘lgan bo‘shliqlar haligacha saqlanib qolmoqda.[5]

Shvetsiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda ayollar ishsizligining pastligi ko‘proq kuchli ijtimoiy himoya tizimi va gender tenglik siyosatining faol qo‘llanishi bilan bog‘liqdir. “The Unhappy Marriage of Marxism and Feminism” maqolaida aytilishicha, rivojlangan davlatlarda ijtimoiy ta‘minot va ta‘lim tizimi ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shvetsiyada davlat tomonidan subsidiyalangan bolalar bog‘chalari va oilaviy ta‘tillar kabi ijtimoiy himoya mexanizmlari ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini rag‘batlantirmoqda. Bu mamlakat tajribasi boshqa davlatlar uchun qimmatli bo‘lishi mumkin.[6]

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro huquq ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qamrab oluvchi va aniq me‘yorlarni ishlab chiqqan bo‘lsa-da, ularning milliy qonunchilik va amaliyotda bajarilishi qiyinchilik tug‘dirmoqda. “The Boundaries of International Law” kitobida xalqaro huquqning qoidalarini samarali tatbiq etish uchun davlatlar nafaqat huquqiy bazani qabul qilishi, balki uni ijro etuvchi mexanizmlarni ham kuchaytirishi kerakligi ta‘kidlangan.[7] Shu sababli, davlatlar xalqaro tajribani o‘rganib, ayollar ishsizligini kamaytirish uchun keng ko‘lamli huquqiy va ijtimoiy choralar ko‘rishlari zarur.

V. XULOSA

Ayollar ishsizligi — global ijtimoiy-iqtisodiy muammo bo‘lib, uni bartaraf etish uchun tizimli va kompleks yondashuv talab etiladi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatganidek, bu muammoning ildizlari huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga borib taqaladi. Xalqaro huquqiy me‘yorlar mavjud bo‘lsa-da, ularning milliy qonunchilikka to‘liq integratsiya qilinmasligi, gender tenglikka erishish yo‘lida jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro konvensiyalarni milliy qonunchilikka to‘liq implementatsiya qilish va ularning ijrosini ta‘minlash muhim.

Bu jarayon qonunlarning amalda samarali ishlashini nazorat qiluvchi mustahkam mexanizmlar yaratishni talab qiladi. Ayollarni malakali kadrlar sifatida tayyorlash uchun ularga maxsus ta'lim dasturlari va malaka oshirish imkoniyatlari yaratish zarur.

Xususan, STEM sohalariga jalb qilish ayollarning yuqori malakali va yuqori maoshli lavozimlarga erishishiga yordam beradi. Gender tenglikka to'sqinlik qiluvchi stereotiplarni bartaraf etish uchun jamoatchilik ongida o'zgarishlar qilish lozim. Ommaviy axborot vositalarida ayollar obrazining ijobiy shakllanishiga yordam berish — bu yo'ldagi muhim qadamdir. Ayollar uchun moslashuvchan ish rejimlarini yaratish va sifatli, arzon bolalar bog'chalari tashkil etish ularga mehnat bozorida faolroq ishtirok etish imkonini beradi. Gender tengligini ta'minlash maqsadida kompaniyalarda maxsus siyosatlarni joriy qilish va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish gender tengligini ta'minlashda va ayollar ishsizligini sezilarli darajada kamaytirishda muhim qadam bo'ladi. Ammo bunday natijalarga erishish uchun davlatlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va xususiy sektorning hamkorligi zarur.

Faqatgina keng ko'lamli hamkorlik va samarali siyosiy choralar orqali bu murakkab masalani hal qilishga erishish mumkin.

REFERENCES

1. Bartlett, K., & Rhode. D. (2002). *Gender and the Law: Theory, Doctrine, Commentary*. New York: Aspen Publishers.
2. Butler, J. (2004). *Undoing Gender*. London: Routledge.
3. Walby, S. (2011). *The Future of Feminism*. Cambridge: Polity Press.
4. Nussbaum, M. C. (2000). *Women and Human Development: The Capabilities Approach*. — Cambridge: Cambridge University Press.
5. Merry, S. E. (2006). *Human Rights and Gender Violence: Translating International Law into Local Justice*. Chicago: University of Chicago Press.
6. Hartmann, H. (1981). *The Unhappy Marriage of Marxism and Feminism*. London: Pluto Press.
7. Charlesworth, H., & Chinkin, C. (2000). *The Boundaries of International Law: A Feminist Analysis*. Manchester: Manchester University Press.
8. International Labour Organization (ILO). (2019). *ILO Standards on Gender Equality and Women's Empowerment*. Geneva: International Labour Office.
9. International Labour Organization (ILO). (2023). *World Employment and Social Outlook: Trends for Women 2023*. Geneva: International Labour Office.

10. MacKinnon, C. A. (1989). *Toward a Feminist Theory of the State*. Cambridge MA: Harvard University Press.
11. Karen Davies, Joke Esseveld. (1985). *Women's Studies International Forum*. Elsevier publish.
12. Nairobi ANPAK. (2023). *Unemployment among women two times higher than men*. Business Daily.